

MERGANLARNI PROFESSIONAL TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK YONDOSHUV

MUINOV Alisher Musinovich

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada merganlari professional tayyorlashda psixologik tomondan yondoshuv, merganlarni saralashda ularning individual-psixologik jihatlari, jumladan temperamentini inobatga olish masalalari yoritilgan. Undan tashqari, 2-jahon urushi, Vyetnam hamda Afg'oniston urushlarida merganlarga qo'yilgan talablardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mergan, jangovar harakatlar, merganlik san'ati, merganning vazifasi, psixologik tayyorgarlik, psixologik tonus, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются значения психологической составляющей при профессиональной подготовке снайперов, учет индивидуально-психологических особенностей, в том числе темперамента личности. Также, приведены примеры требований, предъявляемые к снайперам, из истории 2-ой мировой войны, войны во Вьетнаме и в Афганистане.

Ключевые слова: Снайпер, боевые действия, искусство снайпера, задачи снайперов, психологическая подготовка, психологический тонус, холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик.

Annotation. This article discusses the values of the psychological component in the professional training of snipers, taking into account individual psychological characteristics, including the temperament of the individual. Also, examples of requirements for snipers from the history of the 2nd World War, the Vietnam War and Afghanistan are given.

Keywords: Sniper, fighting, sniper art, sniper tasks, psychological preparation, psychological tone, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic.

Harbiylik kasbi o'ziga xos yuqori mas'uliyat talab etuvchi soha sanaladi. Xizmat bilan bog'liq mas'uliyat hamda davlat, jamiyat va xalq manfaatlarini har narsadan ustunligini his qilish harbiy xizmatchilar faoliyati davomida turli psixologik zo'riqishlar ta'siriga tushishiga olib keladi. Saralangan harbiy soha egalari ichida merganlarning kasb psixologiyasi tubdan farq qiladi, shuning uchun ham ularni professional, psixologik jihatdan tayyorlash davlat siri sanaladi. Merganlarni (psixologik, professional) tayyorlash bo'yicha manbalarni tahlil qilganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek merganlarni harbiy xizmatchilar ichida oliy toifali-sara jangchi sanalganligi uchun ham manbalarning asosini yopiq turdagi axborotlar tashkil etadi. Ochiq internet manbalar tahliliga e'tibor bersak,

merganlarni psixologik, professional jihatdan tayyorlash bo'yicha faqatgina umumiy mazmundagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Masalan, 2017 yil I.V.Nagornov va D.A.Saraykin muallifligida Janubiy-Ural gumanitar-pedagogik universitetida "Sportchini otish sportidagi psixologik tayyorgarligi (Psixologicheskaya podgotovka sportsmena v strelkovom sporte)" nomli metodik tavsiyalarda mualliflar o'qchi sportsmenlarni tayyorlash bo'yicha ma'lumotlarni yoritgan. Unda o'qchi sportsmen shaxsining individual psixologik xususiyatlarini asosiy to'rt komponentga ajratilgan:

1-komponent shaxsning iynalnganligi;

2-komponent shaxsning xususiyatlari, jumladan uning xarakteri va temperamenti;

3-komponent shaxsning qobiliyati;

4-komponent o'qchi sportsmen shaxsining "Ego"si, ya'ni "Men"ligi.

Merganlarni professional, psixologik tayyorlash bo'yicha manbalar ichida asosan o'qchi sportsmenlarni tayyorlash bo'yicha (yuqorida ko'rsatilganidek) metodik tavsiyalar kabi umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Ochiq manbalar tahlilidan kelib chiqib merganlarni saralab olishda inobatga olinishi kerak bo'lgan ba'zi bir psixologik omillarga e'tibor qaratamiz.

Bugungi kunda mergan – bu maxsus tayyorlangan o'qchi, otish, niqoblanish va kuzatish san'atini mukammal biladigan harbiy xizmatchi: u odatda birinchi o'q bilan nishonni yakson qiladi. Merganning vazifasi – qisqa vaqt ichida paydo bo'ladigan muhim, harakatlanuvchi, niqoblangan va niqoblanmagan alohida nishonlarni (dushman merganlari, ofitserlari, aloqachilari va boshqa nishonlarni) yo'q qilishdir. Mergan optikali snayper miltig'i va mo'ljalga olishni osonlashtiradigan maxsus moslamalar bilan qurollanadi.

Mergan – bu shunchaki optik qurol bilan qurollangan harbiy xizmatchi emas. U juda uzoq masofaga nihoyatda aniq ota oladigan o'qchi. Mergan aniqligining meyori – 800 metr masofadagi dushmanni peshonasiga, aniqrog'i ko'zlari orasiga tegiza olishidir.

Ikkinchi jahon urushi davrida Buyuk Britaniyaning eng yaxshi snayperi deb tan olingan Klifford Shor merganlar to'g'risida quyidagilarni yozgan: "Merganlik san'ati – bu sovuqqonlik bilan boshqa odamning hayotidan mahrum qilish bilan bog'liq o'ziga xos fan bo'lib, uni o'rganish va takomillashtirish zarurdir. Men mergan dushmandan nafratlanishi kerak degan fikrni tez-tez eshitganman, lekin nafratlanadiganlardan yaxshi mergan chiqmasligiga ishonch hosil qilganman. Men sovuqqon va o'ziga ishongan odamlarni afzal ko'rardim. Merganlar o'z qurboniga nisbatan nafratni his qilmaydigan, lekin dushmanga yaqinlashib, uni yo'q qilishni o'zlari uchun eng muhim deb hisoblaydigan ovchilardir ...".

2-jahon urushida, Stalingrad himoyasi vaqtida, 62-armiya qo'mondoni general V.I.Chuykov tomonidan varaqa-eslatma tuzilgan. Mazkur vraqada mergan kasbining mohiyati juda aniq ta'riflangan.

Mergan varaqasi. "Mergan – bu maxsus tanlangan, o'qitilgan va mustaqil harakatlarga tayyor jangchi, jangovar vaziyatda mohirona harakat qilishni

biladigan o'qchi. Merganning vazifasi – qisqa vaqt ichida paydo bo'ladigan muhim va xavfli nishonlarni yo'q qilish, sabr-toqat bilan, ularga aniq zarba berish uchun to'g'ri vaqtni tanlash bilan hal qilinadi. Merganlik san'ati – nishonni mustaqil ravishda topish, uning ahamiyatini baholash va bitta o'q bilan yakson qilish.

Mergan nafaqat dushmanning tirik kuchini yo'q qilishi, balki aniq o'q otish bilan dushmanning jangovar faoliyatini izdan chiqara olishi kerak. Buning uchun uning ofitserlarini yo'q qil; razvedkachilar, kuzatuvchilar, aloqachilar, artilleriya kuzatuvchilari ortidan muntazam ov qilishni tashkil qil; ularning kuzatuv moslamalarini ishdan chiqar; dushmanni ko'r qil; uni turib bemalaol yurishiga yo'l qo'ymasdan, emaklashga majbur qil; uning boshini ko'tarishiga yo'l qo'yma; oddiy askarlar orasida vahimani tarqat. Merganning yakuniy maqsadi – dushman orasida vahimani yuzaga keltirish. Sen kutilmagan joyda paydo bo'lgin. Esingda bo'lsin: dushman sendan qo'rqishi kerak!”

Kinodagi mergan obrazi qanchalik romantik ko'rinsa ham, aslida u (biz xohlaymizmi yoki yo'qmi) yuqori professional va yaxshi qurollangan “qotil”dir. Mergan ishining asosiy mazmuni dushmanni tirik kuchini yakson qilishdan iboratdir. Harbiy psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, har qanday harbiy xizmatchi, hatto jangovar stress holatida ham, psixologik to'siqdan o'tib, odamni o'ldirishga qodir emas. Buni ongli ravishda, ataylab va sovuqqonlik bilan bajara oladiganlar kam.

“Agar siz miltiqning mo'ljalga oladigan optikasiga qarasangiz, birinchi bo'lib ko'zingizga tashlanadigan narsa bu – odamning ko'zlari bo'ladi. Odamning konturiga, sharpasiga, olomonga qarab otish bilan bir juft ko'zga otish o'rtasida katta farq bor. Odamni esankiratib qo'yadigan asosiy narsa – odamning ko'zlaridir. Aksariyat odamlar aynan o'sha paytda harakat qila olmay qoladi, bu o'ziga xos jasoratni talab qiladi”, - deb eslaydi AQSH dengiz piyodalari kapitani, Vyetnamda merganlik bo'yicha o'qituvchi.

Darhaqiqat, qisqa masofada, jang avjiga chiqqanida dushmanni o'ldirish ancha oson, chunki o'zini himoya qilish mexanizmi ishga tushadi: yo siz dushmanlaringizni o'ldirasiz, yoki ular sizni. Mergan esa, uzoqdan turib o'q uzadi, o'zi xavf ostida qolmaydi, lekin o'zini qurbonini optika orqali yaxshi ko'rish imkoniyatiga ega. U sizning dushmaningiz ekanini tushunsangiz ham, hech narsadan xabari yo'q odamga o'q uzishga o'zingizni majbur qilish oson emas. Shuning uchun ham, g'arb jamiyatida, hatto urush yoki jang bilan bog'liq harakatlar bo'lishiga qaramay armiya merganlarining faoliyatini qoralashadi. O'rtacha “g'arblik” odam har qanday “sportga mos kelmaydigan” hatti-harakatlardan nafratlanadi: u umuman o'ldirish adolatsiz deb hisoblaydi, chunki agar kerak bo'lsa, buni ochiq jangda qilish kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, “ayyorlik” bilan o'q uzgan mergan, jinoyat bilan chegaralangan adolatsiz harakatni amalga oshiradi deb hisoblaydi.

Shu nuqtai nazardan, faqat jangovar harakatlarda qatnashgan va inson hayotining qadrini biladigan harbiy xizmatchini haqiqiy tajribali professional mergan deb hisoblash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, merganning o'rnida

o'zini his qilish uchun, endi merganlik faoliyatini boshlayotgan harbiy xizmatchi, qanchalik bu dahshatli bo'lmasin, hech bo'lmaganda bitta dushmanni otib o'ldirishi va dushmanning o'limdan bir soniya oldin uni ko'zini ko'rish kerak. Haqiqiy mergan o'q otish maydonchasida emas, balki jangda tug'iladi. "... Menda nimadir o'zgarib boshlaganini his qildim. Jangga borganingizda, siz yer yuzida yurgan eng dahshatli hayvon turiga aylanasiz. Siz yirtqichga aylanasiz. Men uchun itni o'ldirish odamni o'ldirishdan ko'ra qiyinroq ekanligini his qildim ", - deb eslaydi 1943 yilda Italiyada jang qilgan AQSH armiyasining sobiq serjanti.

Jang sharoitida mergan oddiy piyoda askar kabi stressli ta'sirlarga duchor bo'ladi, ammo undan farqli o'laroq, mergan hissiyotlarga berilmasdan, vazifani bajarishga to'liq e'tibor qaratishi kerak. Mergan va oddiy askar o'rtasidagi farq sportchi-otuvchi va sportchi-yengil atletikachining farqiga o'xshaydi: sportchi-yengil atletikachini "sport agressiyasi" g'alabaga olib keladi, sportchi-otuvchi esa "g'azablanib" hissiyotlarga berilsa mag'lubiyatga uchraydi.

Merganning jangovar ishining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u ko'p hollarda asosiy bo'linmadan ajratilgan holda harakat qiladi. Armiyadagi harbiy intizom harbiy xizmatchilarda "bir-birini qo'llab quvvatlash" va qo'mondonlarning buyruqlariga so'zsiz bo'ysunishni tarbiyalaydi, individuallik qo'llab quvvatlanmaydi. Mergan esa "yolg'iz bo'ri": u faqat o'z kuchiga, quroliga va – agar u juftlikda ishlasa – yolg'iz sherigiga tayanadi; u barcha qarorlarni o'zi qabul qiladi, shuning uchun afg'on urushida askarlar jargonida merganni "solist", ya'ni "yakka xonanda" deb atashgani bejiz emas. Umuman olganda, nostandart o'ylash qobiliyati merganning asosiy professional fazilatlaridan biri hisoblanadi, chunki bu merganga dushmanni yengishga va shu bilan topshiriqni bajarib omon qolishga imkon beradi.

Nihoyat, pistirmada uzoq vaqt mobaynida harakatsiz yotish tufayli yuzaga kelgan yuqori statik jismoniy zo'riqish nafaqat merganning organizmiga, balki ruhiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi merganlarga bir qator o'ziga xos talablarni qo'yadi va ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Tanlovdan o'tgan va merganlar guruhiga kirgan nomzodlardan o'ta yaqin mini-jamoa shakllanishi uchun doimiy juftliklarni (o'q otuvchi va kuzatuvchi) tuzish maqsadga muvoffiq. Juftliklarning psixologik va shaxsiy xususiyatlarga bir-biriga mos kelishi kerak. Ikkinchi jahon urushi paytida inglizlar "komandos" guruhlarini tayyorlash jarayonida xuddi shunday usulni qo'llashgan.

Mergan doimiy yuqori psixologik tonusga ega bo'lishi va berilgan vazifani yaxshi bajara olishi uchun muntazam psixodiagnostik tekshiruvdan o'tib turishi zarur. Stress bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish uchun muntazam ravishda relaksatsiya, ya'ni "bo'shshish" shakldagi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari, relaksatsiya mashg'ulotlarini jangovar operatsiyalarga borishdan oldin ham o'tkazilishi maqsadga muvoffiq hisoblanadi. Mazkur mashg'ulotlar merganning o'ziga ishonchni oshirishga, tormozlanish jarayonini

kamaytirishga va o'ziga xos qo'rquv yoki tashvish bilan kurashishga yordam beradi.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki merganlikka saralab olishda harbiy xizmatchining nafaqat fiziologik tuzulishini, jismoniy baqquvatligini va tibbiy sog'lomligini, balki uning psixologik xususiyatlarini, ya'ni temperamenti, xarakter va qobiliyatini ham chuqur o'rganish zarur. Harbiy xizmatchilarining psixologik xususiyatlarini o'rganish psixologiya sohasining mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Merganlikka saralab olish jarayonini (harbiy xizmatchi temperamenti misolida) ko'rib chiqamiz.

Merganlikka saralab olish jarayonida ayniqsa harbiy xizmatchining temperamentini chuqur o'rganmasdan turib ularni merganlikka tayinlash noto'g'ridir.

Temperament harbiy xizmatchi psixik faoliyatining mazmunini emas, balki xizmat faoliyati davomida paydo bo'ladigan dinamik xususiyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda temperament harbiy xizmatchining tashqi muhitga bo'lgan yoki voqea va hodisalarga nisbatan reaksiyasida namoyon bo'ladi.

Barchamizga ma'lum-ki, temperament quyidagi 4 turga ajratiladi (Gumoral nazariya bo'yicha):

Xolerik temperamentidagi harbiy xizmatchiga nobarqarorlik, o'zini tuta olmaslik, reaksiyalarning tezligi, jonli mimika va harakatchanlik xos. Xolerik I.Pavlovning fikricha aniq jangovar tip, u oson va tez qo'zg'aladi. Qiyinchiliklarsiz yangi hayot sharoitlariga moslashadi, atrofdagi kishilar bilan oson muloqatga kirishadi. U yangi sharoitlarda paydo bo'ladigan to'siqlardan qo'rqmaydi, jo'shqin faoliyat sohibi ekanligini va ixtirochiligini namoyon etadi, shuningdek, tezda jamoa lideriga aylanadi.

Bunday odam ishni faol boshlab, uning oxirida sovib qolishi mumkin. Uni bir tekisdagi sekin harakatlar toliqtiradi. U jo'shqin va keskin harakatlarga moyil. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xolerik temperamentli odam biron topshiriqni bajarishdan oldin keragidan ortiq hayajonlanadi. Bu esa o'q otish mashg'ulotlari, jangovor navbatchiliklarda salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Xolerik odamlar deyarli har doim jizzaki, tajang, otashin va o'zini tuta olmaydilar. Kayfiyati tez o'zgarib turadi, ichki xissiyotlar yorqin, lekin davomli emas. Nizoli vaziyatlarda ularni qo'llab-quvatlash yoki tan berish orqali jahldan tushirshi yoki tinchlantirish mumkin.

Sangvinik temperamenti vazmin odamlarga xos. Uning harakatlari xolerikka qaraganda sekinroq, ammo bunday tip yangi sharoitlarga tezda moslashadi. Harbiy xizmatchi-sangvinik o'zining optimistligi va amaliyotchiligi bilan jamoaga tezda qo'shilib ketadi. Xizmatdoshlari bilan tezda tanishib, o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatadi. Bunday kishilar ancha xushchaqchaq, optimist, umid-ishonchli, hazilkash. Sangvinik tez qizishib, tez soviydi, hozirgina o'zi tashabbus bilan kirishgan ishga nisbatan qiziqishi darrov yo'qoladi. U juda ko'p va'da beradi, zero har doim ham uni uddasidan chiqmaydi, notanish odamlar oson va qoniqish bilan

munosabatga kirishadi, ular yaxshi suhbatdosh, mehribon, g'amxo'r. Sangvinik faol, kuch-quvvatli, harakatlari jonli, boy mimikaga ega, ham aqliy ham jismoniy ishlar bilan faol shug'ullana oladi.

Flegmatik temperamentidagi odam vazmin, kam harakt qiladigan va xotirjam bo'ladi. Unga kuchsiz emotsional qo'zg'aluvchanlik xos. U bo'lg'usi harakatlarni uzoq o'ylaydi, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, hayotning yangi sharoitlariga qiyinchilik bilan va sekin moslashadi. Ammo ishda qat'iylik va chidamlik ko'rsatadi. Flegmatik o'rtoqlikka moyil emas, ya'ni ko'proq yolg'izlikni ma'qul ko'radi. Flegmatiklar sovuqqon. Ishdagi faollik yoki zo'riqishdan ko'ra ishsiz o'tirishni afzal ko'radi. Juda sekin qo'zg'alib, asta-sekin tinchlanadilar. Mimikasi yorqin emas, harakatlari sekin. Og'ir-bosiq. Odamlarga moslashib bo'lgandan keyingina erkin muloqotga kirishadi.

Melanxolik temperamentidagi odamga esa boshqalarga qo'shilmaslik va tashabbus ko'rsatmaslik xos. Unda ko'nikish jarayoni qiyinchilik bilan kechadi. U bir-ikkita o'rtoqlar orttirish bilan qanotlanib, o'ziga nisbatan amalga oshirilgan qo'polliklarga ularni ichiga yutish bilan javob beradi. Ular xafagarchiliklarni uzoq vaqt o'zlarida saqlab yuradilar va uzoq davom etadigan his-tuyg'ular bilan yashaydilar. Melanxolik temperamentidagi kishilar jiddiy va murakkab ichki dunyo bilan yashaydilar, hamma narsaga e'tibor beradi, o'ta ehtiyotkor, nozik qalb egalaridir. Melanxolik har doim og'ir-bosiq, o'n marta o'ylab, bir marta ulgursa gapiradi. Va'dasini ustidan chiqa olmasa, ahamiyatli bo'lmasada, chuqur qayg'uradilar. Tabiatda sof temperamentli kishini uchratish qiyin, har qanday insonda biron yetakchi temperament tipiga qo'shimcha ravishda turli tiplarga xos belgilarni uchratish mumkin.

Oliy nerv faoliti xususiyatiga ko'ra I.P. Pavlov o'z ta'limotida temperamentni quyidagi jadval asosida yoritgan.

Temperament tiplari	Nerv sistemasining kuchi	Nerv tizimining muvozanati	Nerv tizimining ildamligi
Xolerik	Kuchli jo'shqin	Muvozanatsiz qizg'in	Serharakat
Sangvinik	Kuchli serharakat	Muvozanatli	Serharakat
Flegmatik	Kuchli vazmin	Muvozanatli	Serharakat yoki inert
Melanxolik	Kuchsiz	Muvozanatsiz tormozli	Inert (sust)

I.P. Pavlov bo'yicha oliy nerv faoliyatining qo'g'alish va tormozlanish xususiyatiga ko'ra tasnifi:

1. Oliy asab faoliyati «to'xtovsiz» tip - kuchli, muvozanatsiz, harakatchan, qiziquvchan, o'zini tuta olmaydi, serjahl, tajang (xolerik);

2. Oliy asab faoliyati «muvozanatlashgan yoki jonli» tip - kuchli, muvozanatlashgan, oson moslashuvchan (sangvinik);

3. Oliy asab faoliyati «sust» tip - kuchli, xotirjam, sekin harakat qiladi (flegmatik);

4. Oliy asab faoliyati «kuchsiz» tip – sustkash, tashqi muhitdagi qarama-qarshiliklarga duch kelishdan qo‘rqadi, o‘ta ta’sirchan (melanxolik).

Manbalar tahlilidan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin; merganlarni saralab olishda temperamentni inobatga oladigan bo‘lsak eng muvofiqi bu-sangvinik va flegmatikni tavsiya etsa bo‘ladi. Sangvinik-mulohazali, moslashuvchan va chaqqonlik xususiyatlari mos kelsa, flegmatik temperament egalari og‘ir-bosiqqligi va diqqat va e’tiborini bir joyga qarata olishi bilan ajralib turadi.

Temperament xususiyatlariga ko‘ra xoleriklar va melanxoliklar bu sohaga to‘liq mos kelmaydi. Sababi, xolerik juda ham shoshma-shoshar va melonxolik nihoyatda sust harakat qilish xususiyatlari mavjudligi uchun.

Shu sababli sababli komandirlar va boshliqlar harbiy xizmatchilarni lavozimga tayinlaganda, yoki mutaxassislikka taqsimlashda ularning individual-psixologik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishi juda zarurdir.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ham Qurolli Kuchlarning jangovar shaligi va qudratini oshirishda merganlarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ishonchim komil merganlarimizning professional qobiliyatlarini oshirishda psixologik tayyorgarlik ishlari alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet-resurslar

1. I.V. Nagornov, D.A. Saraykin Psixologicheskaya podgotovka sportsmena v strelkovom sporte. Metodik tavsiyalar, Yujno-Uralskiy gosudarstvenniy gumanitarno-pedagogicheskiy universitet nashriyoti, - 2017 y.
2. E.G‘oziyev Umumiy psixologiya. – T.: - 2010 y.
3. Ch.Nasritdinov Harbiy psixologiya. – T.: “Fan”, - 2004 y.
4. «Психология снайпера» – internet manbalri.
5. «Кто такой снайпер?» – internet manbalri.